


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023- YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA’LUMOT)**



**Tel.: 71-202-80-47  
[www.stat.uz](http://www.stat.uz)**




## O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 179,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,0 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (27 131,6 ming so'm), Toshkent shahrida (10 818,1 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (10 091,3 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (4 957,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

5,0 mln. so'm




ming. so'mda o'sish sur'ati, % da




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 145,6 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,4 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (17,9 %), Toshkent viloyati (16,9 %), Navoiy viloyati (16,0 %), Andijon viloyati (8,5 %) hamda Samarqand (5,2 %) viloyati hissasiga tog'ri keldi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (106,4 %), Sirdaryo viloyatida (106,4 %) hamda Qashqadaryo (105,5 %) viloyatlarida kuzatildi.







## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,6 trln. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 9,8 % ga toʻgʻri keldi.



yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ko'mir ming t.	1 590,0	1 471,5	- 118,5
Neft, ming t.	247,9	258,5	10,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m	17 963,2	16 264,6	- 1 698,6
Gaz kondensati, ming t.	458,6	423,1	- 35,5

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,6 trln. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 81,4 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,1 % ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 2,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,7 % (22,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 35,8 % (38,5 %), quyi texnologiyali 40,5 % (36,6 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 19,5 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 23,8 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,1 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,1 %)ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 504,6 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 32,0 % ga ko'paygan), 183,0 ming tonna kalava ip (8,4 % kamaygan), 51,2 mln. litr pivo mahsulotlari (5,1 % ga kamaygan) hamda 387,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) dona	92 217	82 383	- 9 834
Yuk avtomobillari, dona	1 322	717	- 605
Avtomobil dvigatellari dona	71 078	62 041	- 9 037
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	597,1	387,1	- 210,0
Paxta tolasi ming t.	244,0	264,7	20,7


\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Yuk avtomobillari** – barcha turdagi yuklarni tashish uchun mo'ljallangan dizel yoki boshqa turdagi yoqilg'i yordamida harakatlanuvchi transport vositasi.


Respublikada 2023- yilning yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 717 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 45,8 % ga kamayish kuzatildi.



## Avtobus ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Avtobus** – 9 va undan ortiq o'rinli yo'lovchilar tashiydigan texnik jihatdan mexanik motorli transport vositasi.

Respublikada 2023- yilning yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 257 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga ko'payganligi kuzatildi.



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## O‘zbekiston Respublikasida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Yengil avtomobillar** – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 27 739 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga kamaydi), 1 985 dona “Nexia T-250” (72,4 % ga kamaydi), 20 673 dona “Gentra” (21,4 % ga kamaydi), 187 dona “Spark” (95,3 % ga kamaydi), 19 052 dona “Damas” (19,0 % ga kamaydi), 7 194 dona maxsus yengil avtomobillar (38,4 % ga oshdi), shuningdek, 3 618 dona “Tracker” va 3 104 dona “Onix” avtomobillari ishlab chiqarildi.



«Cobalt»

2023- yil  
27 739 dona

2022- yil  
28 690 dona

2021- yil  
18 223 dona



«Nexia T-250»

2023- yil  
1 985 dona

2022- yil  
7 195 dona

2021- yil  
9 279 dona



«Damas»

2023- yil  
19 052 dona

2022- yil  
23 534 dona

2021- yil  
17 666 dona



«Gentra»

2023- yil  
20 673 dona

2022- yil  
26 305 dona

2021- yil  
12 047 dona



«Tracker»

2023- yil  
3 618 dona



Maxsus yengil  
avtomobillar

2023- yil  
7 194 dona

2022- yil  
5 199 dona

2021- yil  
3 949 dona



«Onix»

2023- yil  
3 104 dona


### Traktor ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Traktor** – qishloq xo'jaligi, yo'l qurilishi, tuproq qazish, transport va boshqa ishlarni tirkamali, o'rnatilgan yoki statsionar mashinalar bilan birgalikda bajaradigan o'ziyurar (izali yoki g'ildirakli) mashina.

Respublikaning mashinasozlik sanoatida yirik korxonalar tomonidan 30 dona traktor ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,9 % ga kamaygan.



*o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\**




### Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Avtomobil dvigateli** – avtomobilni harakatga keltiruvchi asosiy qurilma bo'lib, 2,3,4 va undan ortiq silindri bo'lishi mumkin.

Respublikaning mashinasozlik sanoatida yirik korxonalar tomonidan 62,0 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga kamaygan.



*o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\**




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Akkumulyator ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Akkumulyator** – keyinchalik foydalanish maqsadida energiyani to‘plash va saqlash uchun mo‘ljallangan qurilma.



2023- yilning yanvar-aprel oylarida mashinasozlik sanoatida, jami yirik korxonalar tomonidan 402,0 ming dona akkumulyatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 martaga ko‘paygan.



## Sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

**Sovutgich** – issiqlik izolyatsiya qilingan xonada past haroratni saqlaydigan qurilma. **Muzlatgich bu** – alohida jihoz yoki muzlatgichning ajralmas qismi, muzlatish va saqlash uchun mo‘ljallangan.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 180,2 ming dona sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ga oshgan.



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra


## Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida, t.	4 846,9	4 943,6	96,7
Portlandsement, ming t.	3 042,0	3 267,3	225,3
Tamaki mahsulotlari, mln.dona	3 575,1	3 512,9	- 62,2
Dizel yoqilg'isi, ming t.	191,5	330,4	138,9
Avtomobil benzini, ming t.	382,3	504,6	122,3

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, dinatriy karbonati ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 102,6 %) hamda kaliy xlorid ishlab chiqarish 116,7 % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 23,8 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 34 653,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,5 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 6 617,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,2 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 20 445,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 4 036,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,8 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 22 673,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 5 859,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9 468,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish** – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan kreking va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 4 150,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 111,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 2 589,7 mlrd. so‘m kuzatildi.



## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

**Elektr uskunalari ishlab chiqarish** – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 3,1 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 166,9 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 4 542,9 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

**Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish** – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko‘rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 350,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.





2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,8 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15 718,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,9 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,3 % ini) tashkil etgan.






## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 96,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 88,4 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	24 988,6	23 995,1	- 993,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11 474,2	10 140,8	- 1 333,4
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m	3 315,0	27 874,0	24 559,0

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

### Elektroenergiya



### Issiqlik energiyasi





\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 trln.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



mld. so'mda FHI, % da

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari 20,0 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,1 % ga ko'paydi.


Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 20,5 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-aprel	2023-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	114,2	120,1	5,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	165,0	131,2	- 33,8
To'qimachilik chiqindilari, t	5 601,2	6 721,3	1 120,1

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 51,8 trln.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,9 %, uning jami sanoatdagi ulushi 28,9 % ga to'g'ri keldi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari



2023- yilning yanvar-aprel oylarida respublikada 20,8 trillion so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 13,4 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan respublika bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Jizzax viloyati (187,5 %), Namangan viloyati (122,5 %) hamda Sirdaryo (122,1 %) viloyati korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 40,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 59,8 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 33,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 66,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 113,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 106,0 % ga to'g'ri keldi.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 20,5 %, shuningdek, Toshkent shahri 20,4 %, Toshkent viloyati 14,3 %, Samarqand viloyati 8,4 % ekanligi kuzatildi.






## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 435,2 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 3 570,4 ming so'mni, Andijon viloyatida – 3 186,0 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 2 474,7 ming so'mni va Jizzax viloyatida – 2 034,7 ming so'mni tashkil etdi.



*Respublikada aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi*



ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da






## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 31,3 %, shuningdek, Toshkent shahri 16,4 % ni, Toshkent viloyati 12,0 % ni, Jizzax viloyati 8,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-aprel  
mlrd.so'mda



Jami iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmidagi ulushi

59,8 %



yanvar-aprel  
o'sish sur'ati, % da




Jizzax	215,5
2 676,6	
Surxondaryo	133,9
426,2	
Namangan	132,6
1 798,0	
Samarqand	119,8
2 276,0	
Qoraqalpog'iston Resp.	113,0
158,0	
Qashqadaryo	111,8
533,5	
Navoiy	110,1
686,3	
Toshkent	107,0
3 719,3	
Farg'ona	104,4
1 130,3	
Buxoro	102,6
807,2	
Sirdaryo	98,1
278,4	
Andijon	98,0
9 700,0	
Toshkent sh.	89,9
5 071,1	
Xorazm	86,2
1 734,6	

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 26,5 % ni, Toshkent viloyatiga 17,8 % va Samarqand viloyatiga 10,0 % ekanligi kuzatildi.

yanvar-aprel  
mlrd.so'mda




Jami iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmidagi ulushi

40,2 %



yanvar-aprel  
o'sish sur'ati, % da




Sirdaryo	134,4
738,7	
Xorazm	120,9
1 571,6	
Toshkent	119,6
3 705,5	
Andijon	118,8
910,6	
Samarqand	116,6
2 085,8	
Qoraqalpog'iston Resp.	116,4
726,4	
Qashqadaryo	116,3
1 003,2	
Toshkent sh.	109,3
5 523,2	
Namangan	108,3
1 043,6	
Farg'ona	107,9
1 109,4	
Buxoro	106,2
1 125,5	
Navoiy	105,6
616,2	
Surxondaryo	105,6
337,1	
Jizzax	91,7
333,3	

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 47,4 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,3 % ni tashkil etgan.


yanvar-aprel  
mlrd.so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining  
jami sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi



yanvar-aprel  
ulushi, % da



Namangan	45,9
2 730,0	
Surxondaryo	45,7
1 069,4	
Farg'ona	45,1
4 103,4	
Samarqand	44,3
4 135,5	
Buxoro	37,6
3 361,8	
Toshkent sh.	36,7
11 786,6	
Sirdaryo	31,5
1 525,9	
Andijon	27,3
4 175,2	
Qoraqalpog'iston Resp.	23,5
1 252,3	
Jizzax	22,7
1 245,6	
Toshkent	21,5
6 510,6	
Qashqadaryo	21,1
1 891,3	
Xorazm	20,4
1 224,8	
Navoiy	8,2
2 362,1	

● mlrd. so'mda

■ Ulushi, % da